

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

O'KTAMOV SARDOR MAXMUDJONOVICH

**MOBIL MIKROGESLAR UCHUN TURBINA KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNI LOYIHALASH USULLARINI
ISHLAB CHIQISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

O'ktamov Sardor Maxmudjonovich

Mobil mikrogenlar uchun turbina konstruksiyasini takomillashtirish va ularni
loyihalash usullarini ishlab chiqish..... 3

Уктамов Сардор Махмуджонович

Совершенствование конструкции турбин для мобильных микроГЭС и
разработка методов их проектирования..... 21

Uktamov Sardor Maxmudjonovich

Improvement of the turbine structure for mobile micro-hydrogens and
development of their design methods..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

O'KTAMOV SARDOR MAXMUDJONOVICH

**MOBIL MIKROGESLAR UCHUN TURBINA KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNI LOYIHALASH USULLARINI
ISHLAB CHIQISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T3113 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurzaqov Akramjon Xakimovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alimuxamedov Shavkat Pirmuxamedovich
texnika fanlari doktori, professor

Muxamedov Jabirxon
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24 dekabr kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel./faks: (+998971) 207-07-32; e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**68** raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (998971) 207-07-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «**11**» **dekabr** kuni tarqatildi.
(«**11**» **12.25y**» da № **203** raqamli reyestr bayonnomasi).



K.A. Karimov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.B. Tashbulatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Muxitdinov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiyaga bo‘lgan talabni ortib borishi natijasida yangi turdagi energiya manbalarini izlash, ularni elektr energiyasiga aylantiruvchi texnik vositalarning yangi avlodlarini yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish masalalari bugungi kunning dolzarb mavzusi bo‘lib kelmoqda. «Dunyoda 2030-yilga kelib elektr energiyasining 80% qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanmasdan ishlab chiqarilishini yoki 60% qayta tiklanadigan energiya manbalari negizida bo‘lishini hisobga olsak», energetika sohasi uchun mashinalar komplekslarini yaratish, ularning yangi ishchi organlari, yuritmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqish hamda hisoblash usullarini rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli, mikro gidro elektr stansiya (Mobil mikroGES) larning foydali ish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan, tez sozlanadigan, konstruksiyasi sodda gidromashina va yuritmalardan keng foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda ilm sohasining yetuk mutaxassislari, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar qayta tiklanadigan energiya manbalari global muammolarni hal etishning kaliti deb hisoblaydi, shu sababli suv energiyasidan foydalanishda qo‘llaniladigan turbinalar, generatorlar va mobil gidroqurilmalarni loyihalash hamda ularni hisoblash usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda. Pirovard natijada ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan, yashil energetika talablariga mos keladigan mashina va mexanizmlar yaratish masalalari ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ustivor yo‘nalishlardan hisoblanmoqda. Ushbu yo‘nalishda, ayniqsa tabiiy oqayotgan oqimlarga mo‘ljallangan foydali ish koeffitsiyenti yuqori gidromashinalar, generatorlar, turbinalar va ularning yuritmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqish hamda hisoblash usullarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, iste‘molchilarning energiya resurslariga o‘sib borayotgan talabini qondirish, energiya tejamkorlikka erishish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «... qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy, tijorat va ma‘muriy-maishiy bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish»¹ vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifani bajarishda, jumladan respublikamiz hududlaridagi past bosimli ariq va jilg‘alarda oqayotgan suvlarning energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beradigan gidromashinalar ishchi organlarining yangi konstruksiyalarini yaratish va uzatish mexanizmlarining ratsional konstruksiyalarini tanlash muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони.

energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2023-yil 12-maydagi PQ-156-son «Yashil energiya» sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21 sentyabrdagi 518-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish to'g'risida» gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan gidromashinalarning turlari, ularning konstruktiv xususiyatlari, yuritmalaridagi uzatish mexanizmlarining tuzilishi va hisoblash usullarini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.Ihrenberger, K.Lothar lar suvning og'irligi hisobiga harakatga keladigan suv g'ildiragining konstruksiyasini taklif etgan bo'lsa, G.Myuller va K.Kauppert esa past bosimli oqimlarda ishlaydigan MikroGESlarni ishlab chiqish usullari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Rossiya olimlari G.V.Treshalov, P.P.Svit, I.P.Vershinina, V.K.Nedbalskiy, A.I.Orlovich, V.D. Sizov, Yu.I.Nikolayenko, A.V.Tarasovlar esa tabiiy oqayotgan suv oqimining quvvatidan foydalanib, elektr energiyasini ishlab chiqish usullarini rivojlantirishga katta hissa qo'shishgan. Qirg'iziston Respublikasi olimi Zulpiyev S.M. ham past bosimli oqimlarda ishlaydigan MikroGES konstruksiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

Respublikamizda tabiiy oqayotgan suv oqimlariga mo'ljallangan gidroqurilmalarlar konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish, hisoblash usullarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar bilan R.A.Zaxidov, S.Ergashev, A.X.Umurzaqov, D.B.Qodirov, M.M.Muxammadiyev, B.U.O'rishov, U.O.Odamov, O'.A.Hakimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mazkur tadqiqot ishlarida mobil mikroGESlar uchun turbina konstruksiyasini tanlash va loyihalash usullarini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining T-2021-172 "Gidronaporsiz ishlaydigan MikroGESlarning ilmiy asoslangan ishchi organlari va yuritmalarini ishlab chiqish" mavzusidagi tijoratlashtirish (2021) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy oqayotgan suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina (mobil mikroGES) lar uchun turbina konstruksiyasi va uni loyihalash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy oqayotgan suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina yuritmalarining ratsional konstruksiyalarini ishlab chiqish;

nazariy tadqiqotlar asosida tabiiy oqayotgan suv oqimlarga mo'ljallangan gidromashina ishchi vallarining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash;

dinamik tahlillar asosida mashina agregatining hisob sxemasi va matematik modelini tuzish hamda harakat qonuniyatlarini aniqlash;

tajribaviy tadqiqotlar asosida gidromashina validagi burovchi momentning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida tabiiy oqayotgan suvning energiyasini olishga mo'ljallangan gidromashinalarning ishchi organlari va yuritmalari olingan.

Tadqiqotning predmetini tabiiy oqayotgan suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina yuritmalarining strukturaviy, kinematik, dinamik va matematik modellari, uzatmaning parametrlari, ish rejimlari va ko'rsatkichlari hamda ularning o'zgarish qonuniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashinalar dinamikasi, tebranishlar nazariyasi hamda ishchi qismlarining harakat rejimlarini asoslashda mashinasozlik va texnologik mashinalarni sinash usullari, eksperimentlarini matematik rejalashtirish va tenzometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy holda erkin oqayotgan suvning kinetik energiyasini elektr energiyaga aylantiruvchi, ishchi organlari suvga to'liq botirib qo'yiladigan mobil gidrodvigatelning ratsional konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan mobil mikrogeslar uchun oqim tezligiga, ishlash sharoitiga va olinadigan quvvatga qarab tanlanadigan ishchi organlarini parametrik qiymatlari parrak qanotchalari o'rnatilgan valga nisbatan 45° - 60° burchak ostida hamda parraklar orasidagi masofa 45-50 sm bo'lishi olinadigan quvvatning (energiyaning) maksimal darajada bo'lish shartidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan;

gidromashina yuritmasini harakatlantiruvchi validagi burovchi momentni hosil qiladigan kuchlarning tashkil etuvchilari kinetostatika tamoyillari asosida aniqlangan hamda ular bilan mexanizm zvenolarining geometrik, kinematik va energetik parametrlari orasidagi bog'lanishlarni aniqlaydigan matematik ifodalar ishlab chiqilgan;

yuritmasida tasmali va zanjirli uzatmasi bo'lgan gidromashinaning dinamik masalasi ikki massali mexanik tizim sifatida qaralib, mobil mikroges parraklari burchak tezligining o'zgarish qonuniyati generatoridagi texnologik qarshilik kuchi momenti va tasmali uzatmaning deformatsion hamda dissipativ xususiyatlariga bog'liq ravishda aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

erkin oqayotgan suv energiyasini olishning maqbul usuli tanlangan;

tabiiy suv oqimlariga mo'ljallangan mobil mikroGESlarning oqilona konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

5 kW li gidromashinaning yillik iqtisodiy samaradorligi an'anaviy elektr energiyasiga nisbatan 6461000 so'm ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, gidromashina konstruksiyasining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy

mexanika va oliy matematika qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribaviy tadqiqotlar tenzometrik usullardan foydalanib o'tkazilgan, olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan gidromashina sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mobil mikrogeslar uchun turbina konstruksiyasi va ularning loyihalash usullari ishlab chiqilganligi hamda nazariy va tajribaviy izlanishlar asosida uning parametrlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tabiiy suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashinani amaliyotga qo'llanilganda muqobil energiya (yashil makon loyihasi)dan samarali foydalanilganligi hamda aholi arzon elektr energiyasi bilan ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mobil mikrogeslar uchun turbina konstruksiyasini takomillashtirish va ularni loyihalash usullarini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Tabiiy suv oqimlarida ishlash imkoniyatiga ega gidromashinaning konstruksiyasini texnik yechimiga O'zbekiston Respublikasining foydali modeli uchun patent olingan ("Oquvchi muhit energiyasini uzatuvchi qurilma", FAP 2535. 26.01.2024). Natijada erkin oquvchi suvlarda ishlash imkoniyatiga ega gidromashinaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan mobil mikroGES Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi "Chorsu" MFYda (2024-yil 15-iyuldagi dalolatnomasi) joriy etilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2024-yil 19-avgustdagi 02-02-01/842-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ekologiyaga zarar keltirilmagan holda, qurilmaning yon atroflari obodonlashtirilib, muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Gidromashina ishlab chiqarayotgan elektr energiyasi mahalla ko'chalarini yoritishda ishlatilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3ta xalqaro va 2ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, 1 ta foydali model uchun O'zbekiston Respublikasining patenti hamda 1 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mobil mikrogeslardan samarali foydalanishning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida gidroenergetikaning rivojlanish istiqbollari va hozirgi holati, gidroturbinalarning turlari va ularning konstruktiv xususiyatlari, past bosimli oqimlarga mo‘ljallangan gidromashinalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlar tahlili, hamda mashinalar yuritish mexanizmlarining ratsional konstruksiyalari va yuritmalarini tanlash bo‘yicha tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Tahlillar asosida quyidagilarni ta‘kidlash lozimki, gidroturbinalarning turlari va ularning konstruktiv xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili natijasida past bosimli oqimlarda suv dvigatellardan foydalanish samarali ekanligi aniqlangan. Past bosimli oqimlarga mo‘ljallangan suv dvigatellarini uzatish mexanizmlari tahlil etish natijasida gidromashinaning yuritmalarini takomillashgan konstruksiyalarini yaratish uchun maxsus tadqiqotlarni o‘tkazishni talab etishi keltirilgan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, Mobil mikroGESlarni loyihalashda birinchi navbatda mashinashunoslik oldida muhim masala bo‘lib turgan, ya‘ni konstruksiyalarning massalari va gabarit o‘lchamlarini kichiklashtirishning ratsional yechimlarini topishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni olib borish dolzarbdir.


Dissertatsiyaning «**Tabiiy suv oqimlarga mo‘ljallangan gidromashina konstruksiyasini ishlab chiqish va ishchi organlariga ta‘sir etuvchi kuchlarni hisoblash**» deb nomlangan ikkinchi bobida gidromashina (Mobil mikroGES)ning konstruksiyasini ishlab chiqish, gidroqurilmaning strukturasi va kinematik tahlili, tavsiya etilgan gidromashinaning asosiy geometrik o‘lchamlarini aniqlash, gidromashina parraklariga ta‘sir etuvchi kuchlar va gidromashinaning parraklarini hamda quvvat uzatish uchun ratsional sxema tanlash bo‘yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra regionimizdagi oqar suvlarga mos keladigan oqim energiyasini olib uzatuvchi dvigatel(gidromashina)ning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).


Tavsiya etilayotgan oquvchi muxit energiyasini olib-uzatuvchi dvigatel (gidromashina) prizma shaklidagi karkas 1 va uning oyoqlaridan 2 hamda old qismida oqim yo‘naltiruvchi tekis plastinkalar 3,4, to‘rtta 5,6,7,8 ishchi valdan, turbog‘ildiraklardan 9,10,11,12,13,14,15,16, turbog‘ildirak ko‘rinishidagi yulduzchalar 17,18,19,20, yulduzchalardan 21,22,23,24, zanjirlardan 25,26, generator yoki boshqa qurilma ulanadigan quvvat olish vallaridan 29,30, ularga biki o‘rnatilgan

tishli g'ildiraklardan 27,28 va maydonchadan 31 tashkil topgan. Ishchi vallar 5,6,7,8 va quvvat olish vallari 29,30 dvigatel karkasiga podshipniklar vositasida o'rnatilgan.


Gidromashina (suv dvigateli) quyidagi tartibda ishlaydi. Dvigatel old tomoni bilan, oqayotgan suvga perpendikulyar holda botirib qo'yiladi va yo'naltiruvchi plastinkalar bilan ariqning qolgan yuzasi to'siladi. Natijada oqimning ishchi yuzadan to'laligicha o'tishi ta'minlanadi. Karkas yuqorisida joylashgan quvvat olish vallari va generator uchun maydoncha suvdan tashqarida qoladi. Qurilmaning ishchi yuza qismida oqim yo'nalishiga parallel joylashtirilgan vallarga o'rnatilgan parraklar va turbog'ildirak ko'rinishidagi yulduzchalardagi parraklarga suv oqimi ta'sir etadi. Parrakning har bir qanoti vallarga ko'ndalang bo'lgan tekislikka nisbatan ma'lum burchak ostida joylashganligi uchun, parraklar oqim ta'sirida aylana boshlaydi. Turbog'ildiraklar o'zi bilan birga vallarni ham aylantiradi. Vallar harakati zanjirli uzatmalar orqali bir-biriga qo'shib, quvvat olish vallariga uzatiladi.



a)




b)



c)

1-rasm. Tavsiya etilgan mobil mikroGES (gidromashina) konstruktiv sxemasi a) old tomondan ko‘rinishi b) yuqoridan ko‘rinishi c) yondan ko‘rinishi.




2-rasm. Gidromashinaning zanjirli yuritmasi.


Suv dvigateli gidromashina (MikroGES)ning asosiy ishchi organi bo‘lib, u gorizontal valga (o‘qqa) o‘rnatilgan. Suv oqimi ta’sirida ma’lum bir burchak tezlikda aylanadi va qarshilik kuchlarini yengib, foydali ish bajaradi.

Dissertatsiyaning «Mobil mikrogen ishchi organlarining parametrlarini asoslash» deb nomlangan uchinchi bobida past bosimli oqimlarga mo'ljallangan gidroagregat yuritmasining ratsional konstruksiyasini tanlash, gidroagregatning dinamik va matematik modelini tuzish, gidromashinaning aylanma harakat qiluvchi ishchi qismlarining inersiya momentlarini aniqlash hamda matematik modeli sonli yechimi va natijalarining tahlili keltirilgan. Tadqiq etilayotgan obyektida energiya manbai energiyani suvdan oladi. Shunday ekan u yerda havo namligi yuqori bo'lishi tabiiy. Shu sababli ishqalanish hisobiga ishlaydigan uzatmalardan foydalanishning samarasini past deb hisoblash mumkin. Demak, tadqiq etilayotgan gidroagregatning yuritish mexanizmida ilashish hisobiga ishlaydigan uzatmalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.


Yuqoridagilarni inobatga olib gidroagregatning bir nechta hisob sxemalari ishlab chiqildi (3-rasm).




a



b



c




d

3-rasm. Kombinatsiyalashgan yuritmalarning foydali ish koeffitsiyentlarini hisoblash sxemalari

Ushbu tadqiqotning maqsadi gidroagregatning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan, massasi va o'lchami kichik bo'lgan yuritmalarning ratsional konstruksiyasini tanlashdan iborat. Mashinalarning asosiy xarakteristikalaridan biri bu uning FIKdir. Mexanik tizimlarning FIK mashinaning qanchalik yaxshi ishlayotganligini bildiradi.

Tadqiqotlardan ko‘rinadiki, past bosimli oqimlarga mo‘ljallangan gidroagregat yuritmalarini tanlab olishda, 3 *a* va *c*-rasmlardagi hisob sxemalarining FIKlari pastligi uchun, 3 *b*-rasmdagi hisob sxemada esa FIK yuqori bo‘lishiga qaramay, uning konstruktiv tuzulishining murakkabligi, massasining kattaligi, vallarning o‘qdoshligi yuqori aniqlikda bo‘lishi kerakligi sababli tavsiya etilmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib 3 *d*-rasmdagi hisob sxema tavsiya etiladi. Chunki ushbu hisob sxema, konstruksiyaning soddaligi, FIK yuqoriligi, val va uning tayanchlariga tushadigan kuchlarning nisbatan kichikligi, sirpanish va shataksirashning mavjud emasligi, zanjirni oson almashtirish va ishlash muddati uzoqligi kabi afzalliklar bilan izohlanadi. Demak, keyingi tadqiqotlarni zanjirli uzatma bilan jihozlangan gidromashina ustida amalga oshiramiz.

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida gidromashinani bir-biri bilan qayishqoq bog‘langan ikki massali mashina agregati sifatida qaraymiz. Bunda qayishqoq bo‘g‘in (tasma)ning bir tomonida gidromashina (mobil mikroGES), ikkinchi tomonida esa generator joylashgan. Uning dinamik modelini shartli ravishda 4-rasmda keltirilgan sxema ko‘rinishida tasvirlash mumkin.



4-rasm. Gidromashinaning dinamik modeli

Tadqiqotlarimizda generatorning burchak tezligini ($\omega_2 = \text{const}$) o‘zgarmas deb qaraymiz, u holda massalarning burilish burchaklari, burchak tezlik va tezlanishlari orasidagi munosabatlarni quyidagicha yozamiz:

$$\varphi_1 - u \omega t = \Delta \varphi, \quad (1)$$

$$\frac{d\varphi_1}{dt} - u \frac{d\varphi_2}{dt} = \Delta \dot{\varphi}, \quad (2)$$

$$\frac{d^2\varphi_1}{dt^2} = \Delta \ddot{\varphi}. \quad (3)$$


(1), (2) va (3) larni inobatga olib 4-rasmda keltirilgan dinamik model uchun massalarning harakatini ifodalovchi differensial tenglamalar sistemasini tuzamiz:

$$\begin{cases} J_1 \Delta \ddot{\varphi} + b \Delta \dot{\varphi} + c \Delta \varphi = M_{\text{ю}} + \Delta M_{\text{ю}} \sin \omega t \\ -b \Delta \dot{\varphi} - c \Delta \varphi = -M_{\kappa} \end{cases} \quad (4)$$


bunda J_1 —suv dvigatelidagi massalarning keltirilgan inersiya momenti, kgm^2 ; b —dempferlash koeffitsiyenti, Nms/rad ; c —tasmaning bikirlik koeffitsiyenti, Nm/rad ; $\dot{\varphi}_1$ —suv dvigatelining burchak tezlanishi, rad/s^2 ; φ_1 —suv dvigatelining burilish burchagi, rad ; $\Delta\varphi$ —tasmaning deformatsiyasi natijasida qo‘shimcha burilish burchagi, rad ; u —tasmali uzatmaning uzatishlar soni; $M_{\text{ю}}$ —suv dvigateli validagi burovchi moment, Nm ; M_{κ} —generator validagi burovchi moment, Nm .

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga binoan (4) differensial tenglamalar sistemasining sonli yechimini olishda parametrlarning quyidagi qiymatlaridan foydalanamiz: $M_{\kappa}=35 \text{ Nm}$; $M_{\text{ю}}=35 \text{ Nm}$; $J_1=0,144 \text{ kgm}^2$; $u=0,25$; $b=4,2 \text{ Nms/rad}$; $c=634 \text{ Nm/rad}$; $\omega_2=20 \text{ rad/s}$; $t=(0-10) \text{ s}$.


Amalga oshirilgan sonli yechimlar asosida gidromashina (mobil mikroGES) ning burchak tezligining o‘zgarish qonuniyatlari olindi (5-rasm).



a)



b)




v)

a- $M_{\kappa}=30 \text{ Nm}$; b- $M_{\kappa}=35 \text{ Nm}$; v- $M_{\kappa}=40 \text{ Nm}$


5-rasm. Gidromashinaning burchak tezligining o‘zgarish qonuniyatlari

Olingan harakat qonunlaridan ko‘rinib turibdiki, elektr energiya iste‘moli ortishi natijasida gidromashinaning burchak tezligi o‘rtacha qiymatlarining kamayishiga olib kelsa, ularning tebranish amplitudalarining esa ko‘payishiga olib keladi. Ta’kidlash lozimki, burchak tezliklarining tebranishlari asosan M_{κ} hamda c ning qiymatlariga bog‘liq bo‘ladi. Tasmali uzatmaning aylanma bikirliklari ortishi bilan valning burchak tezligi me’yorlashadi.

6 va 7-rasmlarda gidromashinaning barqaror harakati davridagi burchak tezligi va uning tebranish qamrovini qarshilik kuchining momentiga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Grafiklardan ko‘rinadiki, qarshilik kuchining momenti 30 Nm dan 40 Nm gacha ortganida gidromashina (mikroGES)ning barqaror harakat davridagi burchak tezligi 5 s^{-1} dan 4 s^{-1} gacha egri chiziqli qonuniyatda kamaysa (6-rasm), uning tebranish qamrovi $0,18 \text{ s}^{-1}$ dan $0,25 \text{ s}^{-1}$ gacha egri chiziqli qonuniyatda (7-rasm) ortar ekan.



6-rasm. Harakat uzatuvchi valning burchak tezligini texnologik qarshilik kuchiga bog‘liqlik grafigi



7-rasm. Harakat uzatuvchi valning burchak tezligi tebranish qamrovini texnologik qarshilik kuchiga bog‘liqlik grafigi

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, harakat uzatuvchi valning tezligining tebranish qamrovini ortib ketishi bilan generatorga uzatilayotgan energiyaning o‘zgarish oralig‘i ham ortib boradi, bu esa generator dan elektr energiyasini olish samaradorligining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun mavjud boshlang‘ich parametrlar qiymatlarida qarshilik kuchining momenti $M_k \leq 35 \text{ Nm}$ bo‘lishi tavsiya etiladi.


Dissertatsiyaning «**Tajribaviy tadqiqotlar va texnik–iqtisodiy samaradorlik hisobi**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajribaviy tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari, o‘tkazish usullari, olingan natijalarni qayta ishlash, joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar keltirilgan. Tajribaviy tadqiqotlar Namangan viloyati Chortoq tumani Chorsu mahallasidan oqib o‘tuvchi ariqqa o‘rnatilgan past bosimli oqimlar uchun mo‘ljallangan gidromashinada o‘tkazildi.

O‘tkaziladigan tajribaviy tadqiqotlarning maqsadi gidromashinaning quvvat uzatish jarayonini aks ettiruvchi parametrlar ya’ni, quvvat uzatish valining aylanishlar soni va undagi burovchi momentning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganish hamda uning foydali ish koeffitsiyentini aniqlashdan iborat.

Tajribaviy tadqiqotlarning vazifalari quyidagilardan iborat:


- Gidromashinaning tajribaviy-sinov nusxasini (modelini) ishlab chiqish;
- Modelning eskizlari va chizmalarini tayyorlash;
- Detallarni tayyorlash va yig‘ish;
- Eksperiment o‘tkaziladigan oqar suvlarni (daryo, kanal, soy va hokazolar) va joylarni, asbob-uskunalarni tanlash;
- Xavfsizlik texnikasini ishlab chiqish;
- Eksperiment o‘tkazish davomida quyidagi parametrlarni aniqlash:
 1. suv oqimining tezligi kesimlar bo‘yicha;
 2. suv oqimining ko‘ndalang birlik yuzaga ko‘rsatayotgan bosim kuchi;
 3. parrak qanotlari 30°, 45°, 60°, 75° burchak ostida o‘rnatilgandagi aylanish tezliklari, aylantiruvchi momentlari;
 4. sun‘iy to‘siq oldidagi va orqasidagi suv oqimining tezligi;
 5. ariqda oqayotgan suvning sarfini aniqlash;
 6. suv sarfi va beriladigan qarshilik kuchini inobatga olgan holda yetakchi valdagi burovchi momentni o‘lchash;
 7. quvvat uzatish validagi aylanishlar sonini o‘lchash.

Tajribaviy tadqiqotlarda vallardagi burovchi momentlarning o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash bosh vazifa etib belgilab olindi. Tajribalarni o‘tkazishda past bosimli oqimlarga mo‘ljallangan gidromashinaning tajriba nusxasi tayyorlandi va uning elektrozometrik sxemasi 8-rasmda keltirilgan hamda u quyidagilardan iborat: 1-ishchi parrak, 2-ishchi val, 3-podshipnik, 4,5-zanjirli uzatma yetakchi yulduzchalari, 6-zanjirli uzatmaning yetaklanuvchi yulduzcha, 7-zanjir, 8-bir juft ochiq tishli uzatma, 9,10,14-quvvat uzatish vallari, 11,12-birinchi tasmali uzatma (multiplikator) shkiylari, 13-tasma, 15-16-ikkinchi tasmali uzatma(multiplikator) shkiylari, 17-generator vali, 18-generator, 19-tenzodatchik, 20-tokosyomnik, 21-magnit, 22-elektromagnitli datchik, 23-Arduno UNO mikrokontrolleri, 24-kompyuter




8-rasm. Tajriba stending elektrotenzometrik sxemasi


O'tkazilgan nazariy tadqiqotlarga asoslanib, qator tajribaviy tadqiqotlar o'tkazildi. Tajribaviy tadqiqotlar ariqda oqayotgan suvning tezligi 1,05 m/s bo'lgan holda 3 xil suv sarfi va 3 xil texnologik qarshiliklarda olib borildi. Bunda suv sarfi 1 sekundda 80 l, 100 l, 120 l. Texnologik qarshilik sifatida generator ishlab chiqarayotgan elektr energiyasi quvvati tanlab olindi va u 100 W, 300 W, 500 W. Tajribaviy tadqiqot natijalari sonli ko'rinishda olinib, ularning o'zgarish qonuniyatlarini tahlil qilish uchun kompyuterning Exel dasturi yordamida ossillogrammalar qurildi (9-rasm).



a



b




c

a-elektr energiya sarfi 100 W; *b*-elektr energiya sarfi 300 W; *c*-elektr energiya sarfi 500 W


9-rasm. Hidromashina validagi burovchi moment va aylanishlar sonining o'zgarish qonuniyatlari (suv sarfi 120 l/s)

Yuqoridagi ossillogrammalar tahlili asosida gidromashina validagi burovchi moment va aylanishlar sonining elektr energiyasi iste'moli quvvatiga bog'liqlik grafigi qurildi (10-rasm). Ushbu grafiklardan ko'rinadiki, elektr energiyasi iste'moli quvvati ortib borgan sari, gidromashina validagi burovchi moment ham egri chiziqli qonuniyatda ortib, aylanishlar soni esa egri chiziqli qonuniyatda kamayib boradi.


11-rasmdan ko'rinadiki, suv sarfining ortib borishi bilan gidromashina validagi burovchi moment tebranish oralig'i kamayib boradi. Masalan, suv sarfi 80 l/s, burovchi moment $M_{s.g.}=139$ Nm bo'lganda $\Delta M_{s.g.}=14,5$ Nm, suv sarfi 100 l/s, burovchi moment $M_{s.g.}=130$ Nm bo'lganda $\Delta M_{s.g.}=11,2$ Nm, suv sarfi 120 l/s, burovchi moment $M_{s.g.}=120$ Nm bo'lganda $\Delta M_{s.g.}=9,8$ Nm bo'ladi. Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, burovchi moment qiymati kattalashgan sari uning tebranish oralig'i ham egri chiziqli qonuniyatda ortib borar ekan.



10-rasm. Gidromashina validagi burovchi moment va aylanishlar sonining elektr energiyasi iste'moli quvvatiga bog'liqlik grafigi



11-rasm. Suv sarfining gidromashina validagi burovchi moment tebranishiga bog'liqlik grafigi



12-rasm. Qarshilik momentning gidromashina validagi burovchi moment tebranishiga bog'liqlik grafi

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan past bosimli oqimlarga mo'ljallangan gidromashinaning FIK 0,75 ni tashkil etar ekan.

5 kW li tabiiy suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina (mobil mikroGES)ning benzin generatoriga nisbatan yillik iqtisodiy samaradorligi 92 252 000 so'mni, an'anaviy elektr energiyasiga nisbatan esa 6 461 000 so'mni tashkil etdi.

XULOSA

1. Mobil mikroGESlar uchun gidroturbinalarning konstruktiv xususiyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili natijasida tabiiy suv oqim energiyasini olib gidromashinalardan foydalanish samarali ekanligi aniqlanib, uning takomillashgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

2. Mobil mikroges parraklari 8 dona bo'lishi hamda parraklardagi qanotchalarining o'rnatilish burchagi 45° - 60° oralig'ida bo'lganda oqar suvning eng ko'p quvvatini olish imkoni borligi aniqlandi.

3. Nazariy tadqiqotlar natijasida mobil mikrogesdagi parraklar diametri 40 sm, bitta valdagi parraklar orasidagi masofa esa 50 sm bo'lishi hisoblab chiqarildi.

4. Tavsiya etilgan past bosimli oqimlarga mo'ljallangan gidromashina yuritmalarida konstruktiv jihatdan sodda, FIK nisbatan yuqori, val tayanchlariga tushadigan kuchlarning nisbatan kichikligi, sirpanish va shataksirashning mavjud emasligi hamda ishlash muddatining uzoqligi kabi afzalliklarini inobatga olib ochiq zanjirli uzatmalardan foydalanish kerak ekan.

5. Generatorning samarali ishlashini ta'minlash uchun suv g'ildiragi burchak tezligining tebranish qamrovi 0,2 rad/s dan ortib ketmasligini inobatga olib, mavjud boshlang'ich parametrlar qiymatlarida qarshilik kuchining momenti $M_k \leq 35 \text{ Nm}$ bo'lishi lozim ekan.

6. Eksperiment tadqiqotlar natijasida taklif etilgan suv dvigateli validagi burovchi moment va aylanishlar sonining turli sharoitlarda, ya'ni suv oqim tezliklari 1.5 m/s, 2 m/s, 2.5 m/s, 3 m/s va elektr energiyasi iste'moli 100 W, 200W, 300 W, 500 W bo'lgan hollardagi o'zgarish qonuniyatlari olindi.

7. Tajribaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan tabiiy suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina suv dvigatelining FIK 0,75 ni tashkil etishi aniqlangan.

8. 5 kW li tabiiy suv oqimlariga mo'ljallangan gidromashina (mobil mikroGES)ning benzin generatoriga nisbatan yillik iqtisodiy samaradorligi 92 252 000 so'mni, an'anaviy elektr energiyasiga nisbatan esa 6 461 000 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

УКТАМОВ САРДОР МАХМУДЖОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ ТУРБИН ДЛЯ
МОБИЛЬНЫХ МИКРОГЭС И РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ИХ
ПРОЕКТИРОВАНИЯ**

05.02.02 – Теория механизмов и машин. Машиноведение и детали машин

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2022.3.PhD/T3113.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdtu.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Умурзаков Акрамжон Хакимович
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Алимухамедов Шавкат Пирмухамедович
доктор технических наук, профессор

Мухамедов Джабирхон
кандидат технических наук, профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный технический институт

Защита диссертации состоится 24 декабря 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.04. при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова (Адрес: 100095, Ташкент, ул. Университетская, дом 2. Тел./факс: (99871) 207-07-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова (зарегистрирован за № 68). (Адрес: 100095, Ташкент, ул. Университетская, дом 2. Тел./факс: (99871) 207-07-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).

Автореферат диссертации разослан « 11 » декабрь 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 203 от « 11 » декабрь 2025 года).



К.А.Каримов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Ш.Б.Ташбулатов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук (DSc), доцент

А.А. Мухитдинов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире растущий спрос на энергию, определяет поиск новых видов источников энергии, создание новых поколений технических средств, преобразующих их в электроэнергию, а также внедрение их в производство. Если учесть, что в мире к 2030 году 80% электроэнергии будет производиться без использования ископаемого топлива или 60% на основе возобновляемых источников энергии, то важным является создание комплексов машин для энергетического сектора, разработка конструкций их рабочих частей, двигателей, а также развитие методов их расчета. По этой причине большое внимание уделяется широкому использованию в конструкциях микроГЭС быстрорегулируемых и высокоэффективных, простых по конструкции водяных колес и приводов.

Во всем мире многие эксперты, международные организации и научное сообщество считают, что возобновляемые источники энергии являются ключом к решению глобальных проблем, что требует проведения исследований, направленных на проектирование турбин, генераторов и чигиров, применяемых при использовании энергии воды, а также на разработку методов их расчета. В конечном итоге задачи создания машин и механизмов, не оказывающих отрицательного воздействия на экологию и соответствующих требованиям «зелёной энергетики», считаются приоритетными направлениями во многих развитых странах. В этом направлении актуальным является проведение целенаправленных научных исследований по разработке конструкций высокоэффективных гидромашин, генераторов, турбин и их приводов, предназначенных, в частности, для низконапорных течений, а также развития методов расчета.

